XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

A.Bahodirxon ko'chasi 186A-uy, +998 62 228 6546, 220100

2026-yil 6-aprel VII-21-33-12-180-K/26 Urganch shahar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorining ijrosi yuzasidan Urganch shahar obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflari miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorning 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tumanlar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilgan.

Bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan. Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Urganch shahrida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov tariflari 1-ilovaga muvofiq;

Urganch shahri Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mahalla fuqarolar yig‘ini buyurtmasi asosida homiylik mablag‘lari hisobidan ichki ko‘chalardagi tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish va ta’mirlash uchun narxlar 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Ushbu qarorning ijrosini ijrosini ta’minlash shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Eshchanov hamda shahar hokimining o‘rinbosari (D.Sabirov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Sh.Xalimov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **RO‘ZIBOYEV POLVON ATAXON O‘G‘LI**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2026-yil 6-apreldagi
VII-21-33-12-180-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Urganch shahrida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov tariflari

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqami**	**O‘lchov birligi**	**Tarif miqdori (so‘m)**
Aholi uchun (1 fuqarodan 1 oyda)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda bir fuqaro uchun	6 400
Yuridik shaxslar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	58 000
Budjet tashkilotlari uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	58 000
Budjet tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish	m^2	700

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2026-yil 6-apreldagi
VII-21-33-12-180-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Urganch shahrida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan mahalla fuqarolar yig‘ini buyurtmasi asosida homiylik mablag‘lari hisobidan ichki ko‘chalardagi tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish va ta’mirlash uchun narxlar

Xizmat ko‘rsatish	**Tip, marka, artikul yoki model raqami**	**O‘lchov birligi**	**Narx miqdori (so‘m)**
Aholi	Tuproq yo‘llarni shag‘allashtirish	m²	80 000
Aholi	Asfalt qilish	m²	145 000